

	2.Абрамян, Н. Г. Краткий курс общей и возрастной психологии: учеб. Пособие / Н. Г. Абрамян, Владим. гос. ун-т им. А.Г. и Н.Г. Столетовых. – Владимир: Изд-во ВлГУ, 2020. – 132 с. 3.Дзялошинский, И. М. Личностный мир человека: социальные и психологические проблемы текстовой деятельности: учебное пособие / И. М. Дзялошинский. — Москва: Ай Пи Ар Медиа, 2021. — 884 с. — Текст: электронный. 4.Социальные проблемы: учебное пособие для академического бакалавриата / Н.С. Сыроед, Н.В. Осмачко, Ю.И. Гайнуллина [и др.], под ред. Н.С. Сыроед. -- Владивосток: Изд-во Дальневост. Федерал. ун-та, 2020. -- 1 CD-ROM; [406 с.]. 5.Boyd, D. & Bee, H. (2012). Lifespan development. (7th ed.), Boston, MA: Pearson / Allyn and Bacon. 6.Robbins, S. P., Chatterjee, P., Canda, E. R., & Leibowitz, G.S. (2019). Contemporary human behavior theory: A critical perspective for social work practice, 4th ed. New York: Pearson. Axborot manbalari: 1. http://www.sci.econ/ 2. http://www.sci.anthropology/ 3. http://www.sci.environment/
7.	Fan dasturi Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2025 yil avgustdagi sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.
8	Kafedra mudiri: Aslonov I. Alisher Navoiy nomidagi TDO'TAU, "Psixologiya va sotsiologiya" kafedrası mudiri, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
9	Fan/modul uchun mas'ul: F.Fayziyeva Alisher Navoiy nomidagi TDO'TAU, «Psixologiya va sotsiologiya» kafedrası v.b. dotsent A.Utamuradov "Psixologiya va sotsiologiya" kafedrası, katta o'qituvchi
10.	Taqrizchilar: N.Razzakova Alisher Navoiy nomidagi TDO'TAU, "Psixologiya va sotsiologiya" kafedrası. (PhD) s.f.b.f.d. M.A.Abdualiyeva - O'zMU, Ijtimoiy ish kafedrası dotsenti, sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI



PSIXOLOGIYA VA SOTSIOLOGIYA KAFEDRASI

INSON XULQ ATVORI VA IJTIMOY MUHIT
faninig

O'QUV DASTURI

Bilim sohasi	900 000– Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot
Ta'lim sohasi	920 000– Ijtimoiy ta'minot
Mutaxassislik	60920100 – Ijtimoiy ish
Ta'lim shakli	kunduzgi

Toshkent – 2025

Fan/modul kodi IX11206	Fan/modul turi majburiy	Ta'lim tili o'zbek	Ishlab chiqilgan o'quv yili 2025/2026						
Semestr	Har bir semestrda fan/modulning nomi	Haftalik dars soatlari	O'quv mashg'ulotlari (soat)					Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
			Jami:	Ma'ruza	seminar	amaliy	laboratoriya		
2.	Inson xulq atvori va ijtimoiy muhit	6	90	30	-	60	-	90	180
	Jami:		90	30	-	60	-	90	180

2.	I. Fanning mazmuni «Inson xulq-atvori va ijtimoiy muhit» fanini o'qitish jarayonida shaxsning turli ijtimoiy tizimlardagi (oilalar, maktab, ish-xona, mahalla, keng jamiyat) xulq-atvorini tushunish va tahlil qilish ko'nikmalari shakllantiriladi. Ushbu fanning vazifalari: Nazariy bilim berish – inson xulq-atvori va ijtimoiy muhitning o'zaro ta'siri haqidagi asosiy nazariyalar va modellarni talabalarga yetkazish. Ijtimoiy muhit tahlilini o'rgatish – oilalar, mahalla, ish-xona, tengdoshlar va ommaviy madaniyatning shaxsga ta'sirini sotsiologik va ijtimoiy ish nuqtai nazaridan tahlil qilish. Tahlil va tadqiqot ko'nikmalarini shakllantirish – xulq-atvorni o'rganishda sotsiologik usullar (anketa, intervyu, kuzatish)dan foydalanishga o'rgatish. Amaliyotga yo'naltirish – inson xulq-atvori va muhitini baholash, mijoz bilan ish jarayonida xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatish usullarini qo'llashga tayyorlash. Ijtimoiy ishda qo'llash – deviant xulq-atvor, ijtimoiy muammolar va stress holatlarida ijtimoiy ishchi qanday yondashishi kerakligini o'rgatish. Etik va insonparvar yondashuvni rivojlantirish – inson huquqlarini hurmat qilish, hamdardlik va mas'uliyat hissini mustahkamlash. Ijtimoiy profilaktika ko'nikmalarini shakllantirish – muammoli muhitlarda profilaktik choralar va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash strategiyalarini ishlab chiqishdan iborat. II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: 1-mavzu. Inson xulq-atvorini o'rganishda sotsiologiya va ijtimoiy ishning o'rnini Inson xulq-atvorini o'rganishning fanlararo xususiyati. Sotsiologiyada shaxs va jamiyat munosabatlari. Ijtimoiy ishda insonparvar va mijozga yo'naltirilgan yondashuv.
----	--

Tushunchalar: shaxs, xulq-atvor, ijtimoiy muhit, ijtimoiy ish amaliyoti. 2-mavzu. Inson xulq-atvori nazariyalari: bixeviorizm, psixozanaliz, kognitiv va ijtimoiy psixologiya yondashuvlari Bixeviorizm: inson xulqini tashqi stimullar-reaksiya orqali tushuntirish. Psixozanaliz (Z. Freyd): ong, ongsizlik, id-ego-superego. Kognitiv yondashuv: fikrlash va tasavvurning xulq-atvordagi roli. Ijtimoiy psixologiya: ijtimoiy ta'sir va moslashuv. Tushunchalar: instinkt, motivatsiya, kognitiv jarayonlar, ijtimoiy ta'sir. 3-mavzu. Sotsiologik yondashuvlar: ijtimoiy rollar nazariyasi, ijtimoiylashuv jarayoni va shaxs rivojlanishi Ijtimoiy rollar nazariyasi (R. Linton, T. Parsons). Ijtimoiylashuv bosqichlari va agentlari. Shaxsning rivojlanishida ijtimoiy muhitning ahamiyati. Tushunchalar: ijtimoiy rol, status, ijtimoiylashuv, identifikatsiya. 4-mavzu. Ijtimoiy muhit tushunchasi: oila, mahalla, ish-xona va keng jamiyatning inson xulq-atvoriga ta'siri Oila va mahallaning ijtimoiy qadriyatlarini uzatishdagi roli. Ish-xona va mehnat muhitidagi ijtimoiy munosabatlarni. Keng jamiyat va madaniy muhit ta'siri. Tushunchalar: ijtimoiy muhit, mikromuhit, makromuhit. 5-mavzu. Ijtimoiy institutlar va xulq-atvor: ta'lim, din, ommaviy axborot vositalari va madaniyatning roli Ta'lim tizimida shaxs rivojlanishi. Dinning axloqiy me'yorlarga ta'siri. Ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy nazorat. Tushunchalar: ijtimoiy institut, ijtimoiy me'yor, madaniy ta'sir. 6-mavzu. Tengdoshlar guruhi va ommaviy madaniyat ta'siri. Yoshlar submadaniyati, internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali xulq-atvor shakllanishi Tengdoshlar guruhining ijtimoiylashuvdagi roli. Yoshlar submadaniyati va identifikatsiya. Internet va ijtimoiy tarmoqlarning ta'siri. Tushunchalar: submadaniyat, internet madaniyati, tengdoshlar bosimi. 7-mavzu. Deviant xulq-atvor: tushuncha, turlari va sabablari. Ijtimoiy nazorat mexanizmlari Deviasiya nazariyalari (Mertonning anomiyasi nazariyasi, Labeling nazariyasi). Deviant xulq turlari: jinoyat, alkogolizm, narkomaniya va h.k. Ijtimoiy nazorat shakllari: rasmiy va norasmiy. Tushunchalar: deviasiya, anomiya, stigma, ijtimoiy nazorat.	3
--	---

8-mavzu. Konformizm va ijtimoiy moslashuv. Insonning ijtimoiy qoidalarga munosabati

Konformizm nazariyalari (Ash (Solomon Asch, 1907–1996) Milgram tajribalari). Ijtimoiy qoidalar va normalarga itoat. Moslashuvning ijobiy va salbiy jihatlari.

Tushunchalar: konformizm, ijtimoiy moslashuv, normalarga itoat.

9-mavzu. Ijtimoiy muammolar va inson xulq-atvori: kambagʻallik, ishsizlik, migratsiya va ularning shaxsga taʼsiri

Kambagʻallik va ijtimoiy inqoniyatlar cheklanganligi. Ishsizlikning shaxsiy va oilaviy taʼsirlari. Migratsiya jarayonlari va ijtimoiy integratsiya.

Tushunchalar: ijtimoiy muammo, ijtimoiy mobillik, ijtimoiy adaptatsiya.

10-mavzu. Stress, krizis va ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash. Mijoz bilan ish jarayonida stressni yengish

Stress nazariyalari (G. Selye). Krizis holatlari va ularning xulq-atvorga taʼsiri. Ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash turlari.

Tushunchalar: stress, krizis, ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash.

11-mavzu. Ijtimoiy ishda inson xulq-atvorini baholash. Diagnostika usullari va tahlil qilish

Ijtimoiy diagnostika tushunchasi. Tadqiqot usullari: intervyu, anketa, keys-stadi. Xulq-atvor tahlil usullari.

Tushunchalar: ijtimoiy diagnostika, keys, tadqiqot usuli.

12-mavzu. Ijtimoiy ishchi va mijoz munosabati. Etik tamoyillar va inson huquqlariga asoslangan yondashuv

Mijoz bilan ishda kommunikativ koʻnikmalar. Ijtimoiy ish etikasi va professionallik. Inson huquqlariga asoslangan yondashuv.

Tushunchalar: etika, professional standart, inson huquqlari, empatiya.

13-mavzu. Xulq-atvorni oʻzgartirish usullari. Maslahat berish, motivatsiya va ijtimoiy profilaktika

Maslahat berish nazariyalari (R. Karkxff, K. Rojers). Motivatsiya nazariyalari (Maslou, Gersberg). Ijtimoiy profilaktika yoʻnalishlari.

Tushunchalar: maslahat, motivatsiya, profilaktika.

14-mavzu. Ijtimoiy ishchi amaliyotida mijoz xulqini oʻzgartirish usullariga alohida eʼtibor

Amaliyotda qoʻllanadigan usullar: motivatsion intervyu, kognitiv-bixevioral yondashuv. Mijoz bilan ishda individual va guruh yondashuv.

Tushunchalar: kognitiv-bixevioral terapiya, motivatsion intervyu, individual ish.

15-mavzu. Inson xulq-atvori va ijtimoiy muhitni tahlil qilishda kasbiy koʻnikmalarni namoyish etish

Olingan nazariy bilimlarni amaliyotda qoʻllash. Keys tahlillari va amaliy mashgʻulotlar. Ijtimoiy ishchidagi kasbiy kompetensiyalar namoyishi.

Tushunchalar: kasbiy kompetensiya, amaliy tahlil, integrativ yondashuv.

III. Amaliy mashgʻulotlari buyicha koʻrsatma va tavsiyalar:

Amaliy mashgʻulotlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Inson xulq-atvorini tahlil qilishda ijtimoiy ishchi va sotsiolog rolini aniqlash.

– Mijoz bilan ishda xulqni kuzatish va tavsiflash

2. Xulq-atvor nazariyalari misolida keys tahlil.

– Bixevioristik va psixanalitik yondashuvdan foydalanib voqeani izohlash

3. Ijtimoiy rollar va statuslar boʻyicha rolli oʻyin.

– “Oiladagi rollar” yoki “ishxonadagi rollar”

4. Ijtimoiy muhit tahlili.

– Mikro va makro muhit xaritasini tuzish (mapping exercise)

5. Ijtimoiy institutlar taʼsiri boʻyicha bahs.

– “Ommaviy axborot vositalari: ijobiy va salbiy taʼsir” mavzusida munozara

6. Yoshlar submadaniyati va internetning taʼsiri.

– Ijtimoiy tarmoqlardagi tendensiyalar tahlili

7. Deviant xulq-atvor holatlari boʻyicha keys-stadi.

– Alkogolizm, qoʻzgʻatuvchi moddalar yoki huquqbuzarlik holatini tahlil qilish.

8. Konformizm tajribasi.

– Solomon Ash yoki Milgram tajribalarini rolli mashq orqali qayta tiklash

9. Ijtimoiy muammolar boʻyicha tahlil.

– Kambagʻallik, ishsizlik yoki migratsiya misolida guruh y muammo tahlili

10. Stress va krizis holatlarini boshqarish mashqi.

– Relaksatsiya usullari, stressni yengish strategiyalari

11. Ijtimoiy diagnostika.

– Anketa va intervyu savollarini tuzish va tahlil qilish

12. Ijtimoiy ishchi va mijoz munosabati.

– Empatiya va faol tinglash

13. Xulq-atvorni oʻzgartirishga qaratilgan maslahat.

– Rolli mashq: maslahatchi va mijoz muloqoti

14. Ijtimoiy ish amaliyotida motivatsion intervyu usuli.

– Amaliy keys asosida motivatsion savollar tayyorlash

15. Keys tahlil.

– “Inson xulq-atvori va ijtimoiy muhit” integrativ tahlili

Bu mavzularda talabalar keyslar, rolevoy mashqlar, munozaralar va ijtimoiy tadqiqot usullarini qoʻllash orqali bilimni mustahkamlaydi.

Topshiriqlar

Ash tajribasi (Konformizm):

Rollar o'yni: talabalar guruhiga 2-3 ta oddiy savol beriladi, aksariyat ishtirokchilar oldindan noto'g'ri javob berishga kelishib oladi. Sinovdagi talaba guruh bosimi ostida o'z fikrini o'zgartirish-o'zgartmasligi kuzatiladi.

Savol: "Nima uchun insonlar ko'pchilik fikriga moslashadi? Bu ijtimoiy ish amaliyotida qanday holatlarda uchraydi?"

Milgram tajribasi (Itoat):

Ssenariy: talabalaran biri "avtoritet shaxs" rolini, ikkinchisi "ijrochi" rolini o'ynaydi. Avtoritet noto'g'ri, lekin qattiq buyruq beradi. Ijrochi qanchalik itoat qiladi?

Muhokama: "Ijtimoiy ishchi mijozga yordam berishda o'zining 'avtoritet' maqomidan qanday foydalanishi yoki suiste'mol qilishi mumkin?"

Rollar o'yni: "Mahalla qo'mitasi yig'ilishi"

Vaziyat: mahallada yoshlar orasida deviant xulq (masalan, internetdan ortiqcha foydalanish, kichik huquqbuzarliklar) kuchaymoqda. Talabalaran biri — ijtimoiy ishchi, qolganlari — mahalla a'zolari.

Topshiriq: ijtimoiy ishchi qanday ishonchli va muvozanatli muloqot orqali vaziyatni hal qilishi mumkin?

Mini-dagnostik topshiriq'i

Talabalaran guruhlarida bir-birini so'rovnomaga yoki psixo-sotsiologik test orqali "stress darajasi" yoki "ijtimoiy moslashuv darajasi"ni aniqlab chiqish so'raladi.

Natijalarni taqqoslab tahlil qilish.

Keyclar

Kambag'allik va xulq-atvor

Vaziriyat: 35 yoshli erkak ishsiz qolgan, oilasida nizolar kuchaygan. U ko'pincha uydan tashqarida vaqt o'tkazadi, bolalari bilan muloqot qilmaydi.

Savollar:

Bu yerda qaysi ijtimoiy muammolar xulq-atvoriga ta'sir qilmoqda?

Ijtimoiy ishchi qanday yordam strategiyasini taklif qila oladi?

Yoshlar va internet

Vaziriyat: 17 yoshli qiz internet orqali ko'p vaqt virtual do'stlari bilan muloqot qiladi, oila a'zolari bilan aloqasi susaygan. Maktabda ko'rsatkichlari pasaygan.

Savollar:

Bu holatda qaysi ijtimoiy muhit omillari muhim?

Ijtimoiy ishchi qanday profilaktik choralarni amalga oshirishi mumkin?

Deviant xulq-atvor (Mayda huquqbuzarliklar)

Vaziriyat: 15 yoshli yigit doimiy ravishda do'kondan kichik narsalar o'g'irlaydi. Oilasida katta muammo ko'rinmaydi, lekin tengdoshlari orasida "avtoritet" bo'lishni istaydi.

Savollar:

Bu holatni qaysi nazariya (bixeviorizm, ijtimoiy rol, submadaniyat va h.k.) asosida tushuntirish mumkin?
Ijtimoiy ishchi qanday ish olib borishi kerak?

Stress va krizis

Vaziriyat: 28 yoshli ona yaqinda turmushidan ajrashgan. U bolasi bilan yolg'iz qolgan va moddiy qiyinchiliklarga duch kelmoqda.

Savollar:

Bu holatda qaysi psixologik va ijtimoiy omillar ta'sir qilmoqda?
Ijtimoiy ishchi qanday qo'llab-quvvatlash xizmatlarini yo'lga qo'yishi mumkin?

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar:

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:

1. Inson xulq-atvorini o'rganishda fanlararo yondashuv: sotsiologiya, psixologiya va ijtimoiy ish tahlili
2. Inson xulq-atvori nazariyalari: bixeviorizm, psixoanaliz va kognitiv yondashuvning qiyosiy tahlili
3. Ijtimoiy rollar nazariyasi: shaxs rivojlanishida rollarning ahamiyati
4. Oila, mahalla va keng ijtimoiy muhitning xulq-atvoriga ta'siri
5. Ijtimoiy institutlar (ta'lim, din, OAV)ning shaxsning qadriyatlarini va xulq-atvorini shakllantirishdagi roli
6. Yoshlar submadaniyati va internet tarmoqlarining xulq-atvor shakllanishiga ta'siri
7. Deviant xulq-atvor nazariyalari va ularning ijtimoiy ish amaliyotidagi qo'llanilishi
8. Konformizm: Solomon Ash tajribasi va ijtimoiy moslashuv jarayoni
9. Kambag'allik, ishsizlik va migratsiya: ijtimoiy muammolarning xulq-atvoriga ta'siri
10. Stress va krizis: insonning psixologik va ijtimoiy himoya mexanizmlari
11. Ijtimoiy ishda inson xulq-atvorini baholash metodlari (subbat, test, kuzatish, so'rovnomaga)
12. Ijtimoiy ishchi va mijoz munosabatlarida etik tamoyillar va inson huquqlari
13. Motivatsion intervyu va maslahat berish texnologiyalari
14. Mijoz xulqini o'zgartirishda ijtimoiy ishchining amaliy usullari
15. Kasbiy kompetensiyalar: ijtimoiy ishchi uchun zarur ko'nikmalar va ularni rivojlantirish yo'llari

16. Shaxs va jamiyat o'rtasidagi munosabat: strukturaviy-funksionalizm va konflikt nazariyalari asosida tahlil 17. Gender rollari va ularning inson xulq-atvoriga ta'siri 18. Ijtimoiy kapital tushunchasi va uning inson xulq-atvoriga ta'siri 19. Stigma va diskriminatsiya: nogironligi bo'lgan shaxslar va ijtimoiy ishchi roli 20. Submadaniyatlar va kontrmadaniyatlar: yoshlar xulq-atvorida o'rni 21. Globalizatsiya jarayonlarining mahalliy xulq-atvor odatlariga ta'siri 22. Ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda stereotiplar shakllanishi 23. Ijtimoiy nazorat mexanizmlari: formal va informal shakllar 24. Ijtimoiy moslashuv va integratsiya: migrantlar tajribasi 25. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tarmoqlari va resurslari: oila, mahalla, NNTlar 26. Kasbiy stress va "yonib ketish" sindromi ijtimoiy ishcilar faoliyatida 27. Etik dilemmalar: ijtimoiy ishchi amaliyotida qarama-qarshi vaziyatlar таҳлили 28. Profilaktika va reabilitatsiya dasturlari: yoshlar orasida deviant xulqni kamaytirish tajribalari 29. Ijtimoiy tadqiqotlarda inson xulq-atvorini o'rganish metodlari (kontent-tahlil, intervyu, kuzatuv) 30. Innovatsion yondashuvlar: raqamli texnologiyalar yordamida xulq-atvorni o'rganish va o'zgartirish <i>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash, taqdimotlar ishlab chiqish va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.</i>	3. VI. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: Inson xulq-atvori nazariyalari va modellari (psixologiya, sotsiologiya va ijtimoiy ish nuqtai nazaridan) bilish. Ijtimoiy muhitning turli darajalari (oilal, tengdoshlar, mahalla, ishxona, ommaviy madaniyat) va ularning shaxsga ta'sirini tushunish. Deviant xulq-atvor, ijtimoiy nazorat va konformizm masalalarini tahlil qilish bo'yicha kompetensiyalariga; Xulq-atvor va muhit o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilishda sotsiologik tadqiqot usullaridan (so'rovnomalar, intervyu, kuzatish) foydalanish. Ijtimoiy ish amaliyotida inson xulqini baholash va mijozning ijtimoiy muhitini tahlil qilish. Muammoli vaziyatlarda inson xulqini o'zgartirishga qaratilgan ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, maslahat berish va profilaktik ishlarni tashkil etish bo'yicha amaliy kompetensiyalarga; Mijoz, oila va jamoa bilan samarali muloqot qilish. Xulq-atvor va muhitga oid muammolarda ijtimoiy ishchi sifatida neytral va professional pozitsiyani saqlay olish. Guruhda ishlash va jamoatchilik bilan aloqada ijtimoiy ish usullaridan foydalanish bo'yicha kommunikativ kompetensiyalar Har bir shaxsning xulq-atvorini uning ijtimoiy muhiti bilan bog'liq holda xolis baholash ko'nikmasi.
---	---

Professional etika va inson huquqlariga asoslangan yondashuvni qo'llash. Ijtimoiy ish amaliyotida insonparvarlik, hamdardlik va mas'uliyat hissini rivojlantirish bo'yicha shaxsiy rivojlanish kompetensiyalari ega bo'lishi lozim. 4. VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: • ma'ruza; • seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlar; • jamoa bo'lib ishlash; • interfaol keys-stadiylar; • individual loyihalar.	5. VIII. Kreditlarni olish uchun talabalar: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda 824-sonli qarori bilan tasdiqlangan "OTMlarda o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida Nizom"ning 15- va 30-bandlariga asosan «Inson xulq-atvori va ijtimoiy muhit» fanidan (1) semestr uchun mo'ljallangan 180 soat o'quv yuklamasini o'zlashtirgan, fan dasturi (sillabus)da belgilangan baholash tartibiga ko'ra ijobiy baholanib kasbiy kompetensiyalarni yetarli darajada egallagan talabaga 2-semestr uchun 6 kredit beriladi, jami bo'lib 6 kredit bo'ladi. Talaba belgilangan ta'lim olish natijalariga erisha olmagan taqdirda kreditlar berilmaydi. Talabalarining bilimni baholash O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan «Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risida»gi Nizom talablari asosida belgilanadi. «Inson xulq-atvori va ijtimoiy muhit» faniga 1 bosqich kunduzgi bakalavr ta'lim yo'nalishlarida 30 soat ma'ruza, 60 soat amaliy va 90 soat mustaqil ta'limga ajratilgan. Universitet nizomi bo'yicha bu 180 soat yuklama hajmiga 6 kredit beriladi. Oraliq nazoratda baho tizimi asosida talabalar baholanadilar. Talabalar yakuniy nazorati balli konvertatsiyasi asosida hamda mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarish uchun ballik shkala tizim asosida yakuniy nazorat bahosiga qo'shib baholanadilar Talabalarining bilimni baholash mezonlari: I. Nazoratlarni amalga oshirish tartibi. Oraliq nazorat: o'quv rejada belgilangan mavzular asosida birinchi oraliq nazorati ishi yozma shaklda o'tkaziladi. Birinchi oraliq nazorat ishi 3 tadan savollardan iborat variantlar asosida o'tkaziladi. Ikkinchi oraliq nazorat ishi talabalarning o'quv semestri davomida fanni o'zlashtirganlik baholari va qo'shimcha savollarga berilgan javoblar asosida umumlashtiriladi. ON mezon: -oraliq nazorati 6-ma'ruza mashg'uloti tugagandan so'ng yozma tarzda o'tkaziladi. 1- oraliq nazoratida talabaga yozma tarzda topshirish uchun, o'tilgan
---	---

Talaba «Inson xulq atvori va ijtimoiy muhit» fanidan mustaqil ravishda xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda— 5 (a'lo) baho; 4 (yaxshi) baho - talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda; 3 (qoniqarli) baho - talaba olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda; 2 (qoniqarsiz) baho - talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning mohiyatini tushunmaydi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda baholar bilan baholanadi.	6. Asosiy adabiyotlar: 1. X.O.Ziyayeva. Inson xulq-atvori va ijtimoiy muhit. O'quv qo'llanma. Toshkent: "Zebo print". 2024. 248 b. 2. А.Абдувалиева. Поведение человека и социальная среда. Учебное пособие. — Т.: "Zamin Nashr", 2023 г. — 253 с. Me'yoriy huquqiy hujjatlar 1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. [Matn] Rasmiy nashr. — Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2023. — 80 b. 2.O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni. 2020-yil 23-sentyabr. 3.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. 4.Sh.M.Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. —Toshkent: O'zbekiston, 2022. — 416 b. 5.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Asambliyasi 75-sessiyasida so'zlagan nutqini o'rganish va keng jamoatchilik o'rtasida targ'ib qilish bo'yicha o'quv qo'llanma [matn].- T.: "Ma'naviyat", 2021.-280 b. 6.Sh.M.Mirziyoyev. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik — milliy g'oyamizning poydevoridir [matn]: Toshkent: TASVIR nashriyot uyi, 2021. 36 b. 7.Sh.M.Mirziyoyev. Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari. — Toshkent: "O'zbekiston" NMU, 2020. — 408 b. Qo'shimcha adabiyotlar: I.Г.Ганиева М.Х. Основы социальной работы. Учебное пособие. — Ташкент: CHASHMA PRINT, 2009. — 112 с.
--	--

ma'ruzalardan kelib chiqib 3 tagacha savollardan iborat bo'lgan variant beriladi (2 dan 5 gacha baho ko'rinishda) baholanadilar. Shundan: agarda talaba 3 ta savolga javob bersa 5 baho (bal konvertatsiyasida) ga ega bo'ladi, agar 2 ta savolga javob bersa 4 baho (bal konvertatsiyasida) ga ega bo'ladi, 1 ta savolga javob bergan talabaga 3 baho (bal konvertatsiyasida) ga ega bo'ladi. Agarda talaba 1 ta ham savolga to'g'ri javob bermagan bo'lsa, unda talaba oraliq nazorat ishini topshira olmagan hisoblanadi. Talaba qayta oraliq nazorat ishini 2 marotabagacha topshirishi mumkin. (Birinchii oraliq nazorat ishi uchun talaba, oraliq nazorat ishlari uchun ajratilgan 40 baldan 10 balini to'playdi, 10 ballni to'pagan talabaga baho tizimida 5 baho qo'yiladi.) 2-oraliq nazorat ishi o'quv semestri davomida seminar mashg'ulotlarda to'pagan baholari umumlashtirilgan tarzda baholanadi. <i>Shundan:</i> ikkinchi oraliq nazorat ishi uchun talaba o'quv mashg'ulotlar davomida berib borilgan barcha mavzular bo'yicha topshiriqlarni mashg'ulotlar daftarida aks ettirilganligi va qo'shimcha og'zaki savollar asosida baholanadi. (ikkinchi oraliq nazorat ishi uchun talaba, oraliq nazorat ishlari uchun ajratilgan 40 baldan 30 balini to'playdi, 30 ballni to'pagan talabaga baho tizimida 5 baho qo'yiladi.) Yakuniy nazorat: yakuniy nazoratlar semestr davomida o'zlashtirilgan mavzular bo'yicha Yozma shaklida o'tkaziladi. (Yakuniy nazorat uchun berilgan umumiy 60 ball hisoblanadi. Undan: 30 balli yakuniy nazorat ishi uchun kiritilgan bo'sa, mustaqil vazifa bajarganlik uchun 30 ball belgilandi.) YaN mezon: Yakuniy nazorat Yozma ish shaklida o'tkaziladi, talabaga 3 ta savoldan iborat variant beriladi (har bir to'g'ri javob uchun 10 baldan beriladi). 3 ta savolga to'liq javob yozgan talaba (30 ballga) 5 bahoga ega bo'ladi. 2 ta savolga javob yozgan talaba (20 ballga) 4 bahoga ega bo'ladi, 1 ta savolga javob yozgan talaba (10 balga) 3 bahoga ega bo'ladi. Agarda talaba berilgan savol variantdagi savollarga javob yozolmasa u fanga tegishli kreditga ega bo'la olmaydi. (Yakuniy nazoratning olinish tartibi, shakli, baholash mezonlari, vaqt taqsimoti va namunaviy savollar berilishi lozim). Mustaqil ish topshiriqlari: mustaqil ish topshiriqlaridagi vazifalarni talabalar taqdimot (slyad) shaklida himoya qiladi, yoki o'qituvchi talabaga topshirgan vazifaga qarab referat, esse shakllarda ham topshirishi mumkin. Vazifalarning bajarilganligiga qarab, talabaning nutq madaniyati kreativ fikrlashiga va qo'yilgan topshiriqqa mustaqil yondoshuviga qarab (30 ballgacha) 5 bahogacha baholanadi. Har bir vazifa (taqdimot, referat, esse yoki maqola) larga qo'yilgan baho, (jami 30 bal) 5 bahoni tashkil etadi. Baholanish mezoniy yakuniy nazorat bahosi ichiga kiritilgan holda baholanadi. 2. Talabalarining bilimini (ON, YN hamda mustaqil ish uchun) baholashda quyidagi mezonlarni hisobga olinadi:
